

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA MUHITIDA YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINING SHAKLLANISHI

Sharifova Madinabonu Marifdjon qizi

Barqaror rivojlanish markazi bosh mutaxassisi

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli kommunikatsiya muhitining yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'zni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida yoshlarning axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar yoritiladi. Raqamli makonning yoshlar ongiga ta'sir mexanizmlari, virtual muloqotning axloqiy jihatlari hamda ijobiy va salbiy omillar muvozanati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yoshlar axloqiy madaniyatini rivojlantirishda raqamli kommunikatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: raqamli kommunikatsiya, yoshlar, axloqiy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari, qadriyatlar, virtual muhit.

АННОТАЦИЯ

В статье с социально-философской точки зрения анализируется роль цифровой коммуникационной среды в формировании нравственной культуры молодежи. Рассматриваются изменения в нравственных установках, поведенческих нормах и системе ценностей молодежи в условиях интернет-платформ и социальных сетей. Анализируются механизмы воздействия цифрового пространства на сознание молодежи, нравственные аспекты виртуального общения, а также баланс позитивных и негативных факторов. Результаты исследования обосновывают необходимость эффективного использования возможностей цифровой коммуникации в развитии нравственной культуры молодежи.

Ключевые слова: цифровая коммуникация, молодежь, нравственная культура, социальные сети, интернет-платформы, ценности, виртуальная среда.

ABSTRACT

The article analyzes the role of the digital communication environment in shaping the moral culture of youth from a socio-philosophical perspective. It examines changes in moral attitudes, behavioral norms, and value systems of young people within the context of internet platforms and social networks. The mechanisms of digital space influence on youth consciousness, ethical aspects of virtual

communication, as well as the balance of positive and negative factors are discussed. The research findings substantiate the importance of effectively utilizing digital communication opportunities in the development of youth moral culture.

Keywords: *digital communication, youth, moral culture, social networks, internet platforms, values, virtual environment.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida raqamli texnologiyalar va kommunikatsiya vositalari inson hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi yoshlar hayot tarziga, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va axloqiy madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda yoshlar uchun raqamli kommunikatsiya muhiti nafaqat axborot olish vositasi, balki muloqot qilish, o'z fikrini ifodalash, ijtimoiy mavqeini belgilash va shaxs sifatida shakllanish makoniga aylangan. Shu jihatdan, raqamli muhit yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Axloqiy madaniyat jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalarining majmuasi bo'lib, u shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi va barkamol rivojlanishida muhim o'rin tutadi. An'anaviy jamiyatda axloqiy madaniyat asosan oila, mahalla, ta'lim muassasalari va madaniy muhit orqali shakllangan bo'lsa, hozirgi davrda bu jarayonga raqamli kommunikatsiya muhiti faol aralashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn platformalar va messenjerlar yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularning axloqiy qarashlari va xatti-harakatlarini qayta shakllantirmoqda.

Raqamli kommunikatsiya muhitining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda muloqot tezkor, keng qamrovli va ko'pincha anonim xarakterga ega. Bu holat yoshlar orasida erkin fikr almashuvi va o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, axloqiy mas'uliyatning susayishi, muomala madaniyatining buzilishi, virtual makonda tajovuzkorlik va befarqlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhit orqali targ'ib etilayotgan turli g'oyalar, qadriyatlar va hayotiy andozalar yoshlarning axloqiy orientatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida raqamli kommunikatsiya yoshlarni nafaqat milliy madaniyat doirasida, balki umuminsoniy va transmilliy qadriyatlar bilan ham bevosita tanishtirmoqda. Bu jarayon yoshlar axloqiy madaniyatining boyishiga xizmat qilishi bilan birga, ayrim hollarda milliy mentalitetga zid bo'lgan qarashlar va xulq-atvor shakllarining singib borishiga ham olib kelmoqda. Natijada, yoshlar

axloqiy madaniyatini shakllantirish masalasi faqat tarbiyaviy muammo emas, balki muhim ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bois, raqamli kommunikatsiya muhitining yoshlar axloqiy madaniyatiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, yoshlar ongida axloqiy barqarorlikni ta'minlashda raqamli platformalarning imkoniyat va cheklovlarini baholash dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya muhitining yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishdagi roli ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida ko'rib chiqilib, ushbu jarayonning asosiy xususiyatlari va muammolari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ijtimoiy va ma'naviy jarayon sifatida qaralgan. Har bir davrda mavjud ijtimoiy muhit, axborot manbalari va kommunikatsiya shakllari yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari hamda xulq-atvorini belgilab bergan. Zamonaviy bosqichda esa bu jarayonning mazmuni va ta'sir mexanizmlari tubdan o'zgargan bo'lib, bu holat raqamli kommunikatsiya muhitining jadal rivoji bilan bevosita bog'liqdir [1].

Axloqiy madaniyat tushunchasi shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatni ongli ravishda o'zlashtirishi hamda ularni kundalik faoliyatida namoyon etishi bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, axloqiy madaniyatning shakllanishi faqat tarbiyaviy institutlar bilan cheklanmay, balki muloqot muhiti va axborot makonining mazmuniga ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, yoshlar ongining shakllanishida kommunikatsiya kanallari muhim rol o'ynaydi [2].

Raqamli kommunikatsiya muhiti yoshlar hayotiga chuqur singib borib, ularning ijtimoiylashuv jarayonini sezilarli darajada tezlashtirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar nafaqat axborot oladi, balki o'z fikrini bildiradi, bahs-munozaralarda qatnashadi va virtual identitetini shakllantiradi. Shu bilan birga, virtual makondagi muloqotning anonimligi va tezkorligi axloqiy mas'uliyat hissining o'zgarishiga olib kelishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi [3].

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar axloqiy ongiga ta'siri ikki tomonlama jarayon sifatida baholanadi. Bir tomondan, raqamli kommunikatsiya muhiti bag'rikenglik, ochiqlik, ijtimoiy faollik va fuqarolik ongining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ta'limiy, madaniy va ma'naviy kontent orqali yoshlarning axloqiy bilimlari kengaymoqda. Ikkinchi tomondan esa, doimiy axborot oqimi, qisqa va yuzaki kontentning ustunligi axloqiy baholash qobiliyatining susayishiga, empatiya

darajasining pasayishiga va befarqlik holatlarining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin [4].

Raqamli muhitda shakllanayotgan "virtual identitet" masalasi alohida ilmiy e'tibor talab qiladi. Tadqiqotchilar virtual makonda yaratilgan obrazlar ko'pincha real hayotdagi xulq-atvorga ko'chishini ta'kidlaydilar. Bu holat yoshlarning axloqiy qarashlari va o'zini tutish me'yorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida real va virtual makon o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda [5].

So'nggi yillarda O'zbekiston sharoitida ham yoshlarning raqamli muhitdagi xulq-atvori va axloqiy mas'uliyatini oshirish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli taraqqiyot strategiyalari va yoshlar siyosati doirasida axborot makonidan ongli va mas'uliyatli foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [6].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tiladi. Raqamli fuqarolik, onlayn muloqot etikasi va axborotdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda [7].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, raqamli kommunikatsiya muhitining ushbu jarayonga ta'siri, ayniqsa milliy madaniyat va mentalitet nuqtai nazaridan kompleks tarzda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli, raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi zamonaviy ilmiy izlanishlarda dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish jarayonida raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi masalasini o'rganishda tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi. Shuningdek, mavzu doirasida mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda raqamli kommunikatsiya muhiti yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun axborot olish, muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish hamda o'z qarashlarini ifodalashning asosiy

makoniga aylandi. Natijada, yoshlarning jamiyat bilan o‘zaro aloqalari tobora ko‘proq virtual muhit orqali shakllanmoqda, bu esa ijtimoiylashuvning mazmuni va shaklini o‘zgartirmoqda [8].

An‘anaviy ijtimoiylashuv jarayonida axloqiy me‘yorlar va ijtimoiy xulq-atvor asosan oila, ta‘lim muassasalari va bevosita jamoa orqali shakllangan bo‘lsa, raqamli davrda ushbu vazifani virtual muloqot va onlayn kontent bajarib bormoqda. Yoshlar axloqiy qarorlarni qabul qilishda tobora ko‘proq ijtimoiy tarmoqlardagi baholar, ommaviy fikr va raqamli tajribaga tayanmoqda. Bu holat ijtimoiylashuv jarayonining individuallashuvi va subyektivlashuviga olib kelmoqda.

Raqamli kommunikatsiya muhiti yoshlar uchun ijobiy imkoniyatlar yaratishi bilan birga, muayyan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, axborotga keng kirish, ijtimoiy faollik va muloqot doirasining kengayishi yoshlarning ijtimoiy tajribasini boyitadi. Ikkinchi tomondan esa, virtual muloqotning ustunligi real ijtimoiy munosabatlar tajribasining qisqarishiga olib kelib, ijtimoiy mas‘uliyat va empatiya kabi axloqiy sifatlarning yetarli darajada shakllanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida ham yoshlar ijtimoiylashuvida raqamli muhitning ta‘siri yildan-yilga kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Internet foydalanuvchilari sonining oshishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvoriga bevosita ta‘sir etmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, ushbu jarayon yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda raqamli omillarni hisobga olgan holda tizimli yondashuvni talab qiladi [9].

Raqamli makon yoshlar axloqiy madaniyatiga tayyor me‘yorlarni uzatishdan ko‘ra, ularni tanlash, solishtirish va qayta belgilash jarayoniga tortmoqda. Bugungi yoshlar axloqiy qarorlarni ko‘pincha an‘anaviy tarbiya manbalaridan emas, balki turli raqamli platformalarda mavjud bo‘lgan qarama-qarshi qarashlar, bahslar va shaxsiy tajribalar asosida shakllantirmoqda. Bu holat axloqiy madaniyatning barqaror tizimdan ko‘ra, o‘zgaruvchan va situativ xususiyat kasb etishiga olib kelmoqda.

Raqamli muhitda axloqiy madaniyatning muhim jihati — tanlov erkinligining kengayishidir. Yoshlar turli madaniy, diniy va ijtimoiy qarashlar bilan bir vaqtda tanishish imkoniyatiga ega bo‘lib, axloqiy pozitsiyani mustaqil belgilash zarurati bilan yuzlashadilar. Bu jarayon axloqiy yetuklikni rivojlantirishi mumkin, biroq yetarli tayanch bo‘lmaganda, axloqiy beqarorlik va qarama-qarshi qadriyatlar o‘rtasida yo‘qolib qolish holatlarini ham yuzaga keltiradi [10].

Raqamli muhit axloqiy madaniyatga subyektiv tajriba ustuvorligini olib kiradi. Yoshlar uchun shaxsiy his-tuyg‘u, individual qarash va virtual tajriba axloqiy baholashning asosiy mezoniga aylanmoqda. Natijada umumiy qabul qilingan axloqiy

me'yorlar ikkinchi darajaga tushib, "men uchun to'g'ri" tamoyili ustunlik qila boshlaydi. Bu holat axloqiy madaniyatning kollektiv emas, individual xarakter kasb etishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, raqamli makonda axloqiy madaniyat vaqt va masofa chegaralaridan uzilgan holda shakllanadi. Virtual makonda amalga oshirilgan xatti-harakatlar ko'pincha real oqibatlardan xoli deb qabul qilinadi. Bu esa axloqiy refleksiya — ya'ni o'z xatti-harakatini baholash va oqibatlarini anglash jarayonining sustlashishiga olib keladi. Ayrim hollarda yoshlar virtual makondagi xulqini real hayotdagi axloqiy me'yorlar bilan bog'lamaydi.

O'zbekistonlik olimlar ta'kidlashicha, yoshlar axloqiy madaniyatining bunday transformatsiyasi milliy qadriyatlar va zamonaviy axborot muhitining to'qnashuvi natijasidir. Raqamli makonda shakllanayotgan axloqiy tasavvurlarni milliy ma'naviy asoslar bilan uyg'unlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda yoshlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va axloqiy tanlov madaniyatini shakllantirish muhim vazifa sifatida ko'riladi [11].

Innovatsion texnologiyalar yoshlar axloqiy rivojlanishiga bir yoqlama ta'sir ko'rsatmaydi, balki bir vaqtning o'zida bir nechta qarama-qarshi yo'nalishlarni vujudga keltiradi. Raqamli vositalar orqali yoshlarning bilim doirasi kengaymoqda, axloqiy mavzularga bo'lgan qiziqishi ortmoqda, biroq ayni paytda axloqiy barqarorlikning saqlanishi murakkablashmoqda. Axloqiy rivojlanish jarayoni endilikda izchil chiziqli shaklda emas, balki o'zgaruvchan va bo'linib ketgan holatda kechmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta'sirida yoshlar axloqiy tajribasining fragmentlashuvi kuzatiladi. Axloqiy bilim, hissiy munosabat va real xatti-harakat o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham saqlanmayapti. Yoshlar ma'lum axloqiy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlashini bildirgan holda, kundalik faoliyatda ularga zid bo'lgan xulq-atvorni namoyon etishi mumkin. Bunday tafovut axborotning tez iste'mol qilinishi va uning chuqur ichki qayta ishlanmasligi bilan bog'liq [12]. Innovatsion texnologiyalar yoshlarning axloqiy qaror qabul qilish tezligini oshiradi. Tezkor aloqa va doimiy axborot oqimi yoshlarni vaziyatga darhol munosabat bildirishga undaydi. Natijada axloqiy tanlov ko'pincha uzoq muddatli oqibatlarni emas, balki qisqa muddatli qulaylikni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu holat axloqiy yetuklikning sekin va bosqichma-bosqich shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mahalliy tadqiqotlar kontekstida innovatsion texnologiyalarning ta'siri bevosita emas, balki vositali mexanizmlar orqali amalga oshayotgani e'tiborga loyiq. Virtual guruhlar, norasmiy raqamli yetakchilar va onlayn muloqot madaniyati yoshlar axloqiy rivojlanishiga texnologiyaning o'zidan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu holat axloqiy rivojlanishni boshqarishda texnik cheklovlardan ko‘ra, ma‘naviy va madaniy yo‘naltirish ustuvor bo‘lishi zarurligini anglatadi [13].

Innovatsion texnologiyalar sharoitida yoshlar axloqiy rivojlanishi murakkab va ko‘p variantli jarayonga aylanmoqda. Ushbu jarayon texnologik vositalardan voz kechish bilan emas, balki ularni ongli, tanqidiy va maqsadli qo‘llash orqali muvozanatlashishi mumkin. Shu jihatdan innovatsion texnologiyalar axloqiy rivojlanish uchun tayyor yechim emas, balki mas‘uliyatli yondashuvni talab etuvchi ijtimoiy muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalar rivoji yoshlarning axloqiy rivojlanishida yangi muammolar qatlamini yuzaga chiqarmoqda. Raqamli makon yoshlar uchun nafaqat axborot va muloqot muhiti, balki axloqiy sinov maydoniga ham aylanmoqda. Virtual makonda yuz berayotgan holatlar tezkorligi va ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi, bu esa axloqiy baholash jarayonini murakkablashtiradi. Yoshlar ko‘pincha vaziyatni to‘liq anglab yetmasdan munosabat bildiradi, natijada axloqiy qarorlar ichki e‘tiqoddan ko‘ra tashqi omillarga bog‘liq holda shakllanadi.

Raqamli muhitda axloqiy xavflarni anglash masalasi yoshlarning axborotni tanlab qabul qilish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. Doimiy axborot oqimi sharoitida muhim va ikkinchi darajali mazmunni farqlash qiyinlashadi. Bu holat axloqiy sezgirlikning pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki yoshlar salbiy yoki bahsli holatlarga nisbatan odatlanib boradi. Natijada ayrim axloqiy me‘yorlar kundalik tajribaning bir qismi sifatida qabul qilinib, ularga tanqidiy munosabat susayadi. Axloqiy o‘zini boshqarish masalasi raqamli makonda alohida ahamiyat kasb etadi. Real ijtimoiy muhitda xulq-atvor ko‘pincha bevosita ijtimoiy nazorat orqali tartibga solinsa, virtual muhitda bunday mexanizmlar to‘liq ishlamaydi. Yoshlar onlayn faoliyatda o‘z harakatlarining oqibatini kech anglaydi yoki uni mavhum deb hisoblaydi. Bu esa mas‘uliyat hissining fragmentlashuviga olib keladi, ya‘ni axloqiy javobgarlik faqat real hayot bilan bog‘lanib, virtual faoliyat undan ajratib qo‘yiladi.

Raqamli muhitda axloqiy rivojlanishga ta‘sir etuvchi yana bir jihat — vaqt omilidir. Virtual makonda xatti-harakatlar tezkor amalga oshiriladi, qarorlar esa qisqa vaqt ichida qabul qilinadi. Bunday sharoitda axloqiy refleksiya, ya‘ni o‘z xatti-harakatini ichki tahlil qilish imkoniyati cheklanadi. Yoshlar ko‘pincha “keyin o‘ylash” tamoyiliga amal qiladi, bu esa axloqiy tanlovni kechiktirilgan ongli baholashdan mahrum etadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ta‘kidlanishicha, raqamli muhitda axloqiy barqarorlik texnologik cheklovlar orqali emas, balki ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirish orqali ta‘minlanadi. Axloqiy refleksiya, tanqidiy fikrlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari yoshlarning raqamli muhitdagi

xatti-harakatlarini muvozanatlashga xizmat qiladi. Ushbu sifatlar shakllanmagan sharoitda innovatsion texnologiyalar axloqiy rivojlanish o'rniga axloqiy befarqlikni kuchaytirishi mumkin [14].

O'zbekiston sharoitida yoshlarning raqamli muhitdagi axloqiy xatti-harakatlarini tahlil qilish shuni anglatadiki, oila va ta'lim muassasalari tomonidan berilayotgan an'anaviy axloqiy tarbiya raqamli tajriba bilan doim ham uyg'unlashmaydi. Shu bois axloqiy tarbiya faqat oflayn muhit bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarning onlayn faoliyatini ham qamrab olishi lozim. Raqamli makonda axloqiy xavflarni anglash va o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish yoshlar axloqiy madaniyatining barqaror shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Raqamli makon yoshlar ongida axloqiy normalarni qat'iy qoida sifatida emas, balki vaziyatga bog'liq tushuncha sifatida qabul qilish jarayonini kuchaytirmoqda. Virtual muhitda turli madaniyatlar, qarashlar va hayotiy pozitsiyalar bir vaqtda namoyon bo'lgani sababli, axloqiy mezonlar yagona va barqaror tizim sifatida idrok etilmayapti. Natijada yoshlar axloqiy masalalarda "to'g'ri" va "noto'g'ri" tushunchalarini mutlaq emas, balki subyektiv baholashga moyil bo'lmoqdalar. Axloqiy chegaralarning xiralashuvi ayniqsa onlayn muloqotda yaqqol seziladi. Virtual makonda muloqot ishtirokchilarining bir-birini shaxsan tanimasligi, yuzmayuz aloqaning yo'qligi axloqiy cheklovlarini susaytiradi. Ayrim holatlarda haqorat, masxara yoki befarqlik real hayotdagiga nisbatan yengilroq qabul qilinadi. Bu holat axloqiy sezgirlikning pasayishiga va me'yoriy chegaralarning nisbiylashuviga olib keladi.

Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda raqamli muhitda axloqiy normalarning nisbiylashuvi jamiyatda "moslashuvchan axloq" modelining shakllanishi bilan izohlanadi. Ushbu modelda axloqiy qarorlar umumiy qadriyatlarga emas, balki shaxsiy manfaat va vaziyatga moslashuv asosida qabul qilinadi [15]. Bu jarayon yoshlar axloqiy madaniyatida barqarorlik o'rniga o'zgaruvchanlikni kuchaytiradi.

Raqamli kommunikatsiya vositalari yoshlar muloqot madaniyatini tubdan o'zgartirdi. Xabar almashishning tezkorligi va soddaligi muloqotni qulaylashtirgan bo'lsa-da, axloqiy mas'uliyat hissining to'liq shakllanishiga har doim ham xizmat qilmayapti. Virtual makonda so'z va harakatning oqibatlari kechikib sezilishi yoki umuman ko'rinmasligi mumkin, bu esa mas'uliyatni his qilishni murakkablashtiradi.

Virtual muloqotda axloqiy mas'uliyatning sustlashuvi, ko'pincha, shaxsiy javobgarlikning tarqoqlashuvi bilan bog'liq. Yoshlar onlayn muhitda o'zini jamoaning kichik bir qismi sifatida his qiladi va individual mas'uliyat umumiy oqim ichida yo'qolib ketadi. Bu holat axloqiy javobgarlikning kollektiv tarzda "bo'linib ketishi"ga olib keladi. Pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, virtual muloqot

madaniyatini axloqiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish yoshlar tarbiyasida muhim vazifa hisoblanadi. Agar raqamli muloqot axloqiy mezonlar bilan mustahkamlanmasa, u muloqot madaniyatini rivojlantirish o'rniga, axloqiy befarqlikni kuchaytirishi mumkin [16]. Shu sababli raqamli muloqot madaniyatini axloqiy tarbiya bilan birgalikda shakllantirish zarur. Raqamli muhitda shakllanayotgan axloqiy tajriba qisqa muddatli xatti-harakatlar bilan cheklanmay, yoshlar shaxsiyati va dunyoqarashiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Virtual muhitda takrorlanadigan axloqiy holatlar vaqt o'tishi bilan odatiy xulq-atvor modeliga aylanadi va real hayotdagi qarorlarga ham ko'chadi. Shu tariqa raqamli tajriba yoshlar axloqiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanadi. Uzoq muddatli oqibatlardan biri — axloqiy baholashning soddalashuvidir. Raqamli muhitda ko'plab jarayonlar qisqa formatda amalga oshirilgani sababli, murakkab axloqiy vaziyatlar ham soddalashtirilgan tarzda qabul qilinadi. Bu esa yoshlarning murakkab axloqiy muammolarni chuqur tahlil qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Falsafiy va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida raqamli tajribaning uzoq muddatli oqibatlari axloqiy ongning transformatsiyasi bilan bog'lanadi. Axloqiy madaniyat endilikda faqat an'anaviy tarbiya mahsuli emas, balki raqamli tajriba orqali shakllanayotgan dinamik jarayon sifatida qaralmoqda [17]. Shu nuqtai nazardan, yoshlar axloqiy madaniyatini rivojlantirishda raqamli muhitni inkor etish emas, balki uning uzoq muddatli ta'sirlarini ongli ravishda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Maqolada raqamli kommunikatsiya muhiti sharoitida yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar yoshlar axloqiy rivojlanishiga faqat tashqi ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida emas, balki axloqiy qaror qabul qilish mexanizmlarini qayta shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy muhit sifatida namoyon bo'lishi asoslandi. Raqamli makon yoshlarning axloqiy ongini kengaytirish bilan bir qatorda, axloqiy mas'uliyatni anglash, me'yorlarni talqin etish va shaxsiy pozitsiyani belgilash jarayonlarini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Tahlil natijalari raqamli muhitda yoshlar axloqiy madaniyati qat'iy va barqaror tizim sifatida emas, balki o'zgaruvchan, kontekstga bog'liq va individual tajribaga tayangan holda shakllanayotganini ko'rsatdi. Axloqiy normalarning nisbiylashuvi, virtual va real makon o'rtasidagi mas'uliyat chegaralarining farqlanishi, shuningdek, tezkor axborot oqimi ta'sirida axloqiy refleksiyaning cheklanishi mazkur jarayonning

asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo'ldi. Bunday sharoitda yoshlarning axloqiy xulq-atvori ko'proq vaziyatga moslashuvchan qarorlar asosida shakllanmoqda.

Maqolada innovatsion texnologiyalarning yoshlar axloqiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'lishi ochib berildi. Bir tomondan, raqamli muhit yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, global axloqiy muammolarga nisbatan sezgirlikni kuchaytirish va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, axloqiy mas'uliyatning fragmentlashuvi, muloqot madaniyatining soddalashuvi va axloqiy tanlovda yuzakilikning kuchayishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Ushbu qarama-qarshi jarayonlar yoshlar axloqiy madaniyatining murakkab va ko'p qatlamli xususiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishida milliy ma'naviy qadriyatlar va raqamli tajriba o'rtasidagi uyg'unlik masalasi alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Raqamli muhitda shakllanayotgan axloqiy qarashlar an'anaviy tarbiya tizimi bilan yetarli darajada muvofiqlashtirilmasa, yoshlar ongida qadriyatlar ziddiyati yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Shu sababli axloqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarni inkor etish emas, balki ularni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yo'naltirish va tarbiyaviy jarayonlarga integratsiya qilish zarurati asoslandi.

Tadqiqot natijalari yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda raqamli muhitning o'рни faqat nazorat yoki cheklovlar orqali belgilanmasligi lozimligini ko'rsatadi. Asosiy e'tibor yoshlarda tanqidiy fikrlash, axloqiy refleksiya va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Aynan ushbu sifatlar raqamli kommunikatsiya muhiti sharoitida barqaror axloqiy madaniyatni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada bayon etilgan xulosalar raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirish masalasi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Olingan natijalar ta'lim tizimi, yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirish jarayonida foydalanish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu yo'nalishda yoshlar axloqiy xulq-atvorini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar va amaliy modellarni ishlab chiqishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Buckingham D. Youth, Identity and Digital Media. MIT Press, Cambridge, 2008.
- [2] Turiel E. The Moral Domain. Cambridge University Press, 1983.
- [3] Turkle S. Alone Together. Basic Books, New York, 2011.

- [4] Papacharissi Z. A Networked Self. Routledge, London, 2011.
- [5] Livingstone S. Children and the Internet. Polity Press, Cambridge, 2009.
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
- [7] UNESCO. Digital Citizenship Education. Paris, 2019.
- [8] Livingstone S. Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities. Cambridge: Polity Press, 2009.
- [9] Qodirov M. Yoshlar ma’naviyati va ijtimoiy faollik masalalari. Toshkent: Fan, 2020.
- [10] Boyd D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. New Haven: Yale University Press, 2014.
- [11] Ergashev I. Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati va axloqiy tarbiya masalalari. Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
- [12] UNESCO. Youth and Digital Transformation: Ethics, Responsibility and Participation. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
- [13] Xudoyberdiyev O. Zamonaviy texnologiyalar va yoshlar axloqiy tarbiyasi muammolari. Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
- [14] Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000.
- [15] Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. London: Sage Publications, 1992.
- [16] Ribble M. Digital Citizenship in Education. Washington: International Society for Technology in Education, 2011.
- [17] Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.